

Maktabgacha yoshidagi bola shaxsini tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligi

**Namangan viloyati Pop tumani
51-DMTT direktor o'rinbosari
Omonova Ergashoy Abduqodirovna**

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha yoshidagi bola shaxsini tarbiyalashda maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligi va maktabgacha yoshidagi bola shaxsini shakllantirishda maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila hamkorligi haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, intellektual, salohiyatli, aql-zakovatli bo'lsa, jamiyat farovonligi, iqtisodiyot, davlat, xalq, mamlakat, ota-ona tashkilot.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining ota-onalar bilan hamkorlikdagi ishining mazmuni va usullari Mustaqil O'zbekiston Ravnaqi bugungi yosh, yangi avlodni har tomonlama barkamol shaxs sifatida shakllantirishga ko'p jihatdan bog'liqdir. Maktabgacha ta'lim tashkilotining ota-onalar bilan hamkorligi maktabgacha ta'lim sifatining muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik bolalarning ta'lim olishi, farovonligi va rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti ota- onalar va mahalliy hamjamiyat bilan o'zaro munosabatlarning turli shakllarini amalga oshirish mumkin., people, country, parent organization.

Maktabgacha ta'lim sifatini yuksaltirish bugungi kunning muhim talablaridan biridir. Chunki yetishib kelayotgan yoshlar intellektual salohiyatli, aql-zakovatli bo'lsa, jamiyat farovonligi va iqtisodiyotning baqarorligini belgilab beruvchi ko'rsatkichlar jadal sur'atda oldinga siljiydi. Bugungi kunda davlatimiz siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri bo'lgan barkamol avlod tarbiyasi uchun qayg'urish, ularning huquqlarini himoya qilish va ro'yobga chiqarish, jamiyat uchun bilimli va salohiyatli shaxs etib yetishtirib chiqarish har bir jamiyat a'zosi, oila, qolaversa har bir fuqaroning maqaddas burchi, insoniylik ma'suliyatidir. Har qanday davlat, xalq, mamlakat o'z kelajagini yoshlar timsolida ko'rishi tabiiy. Jahon psixologik ilmida bola xulq-atvori va ruhiyatining shakllanishida talim tashkilotlarining oila va mahalla bilan hamkorligi yetakchi muhim o'rin egallaydi. Maktabgacha ta'lim sifatini yuksaltirishda ota-onalarning bola tarbiyasidagi mas'uliyatini oshirish, bog'chada olib boriladigan mashg'ulotlar mazmuni va mohiyati bilan tanishishtirishga, ota onalarning tashkilot tarbiyachilari bilan hamkorligini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilishi kerak. Mutaxassislar fikriga ko'ra, ota-ona tashkilotda olib borilayotgan mashg'ulotlar bilan qiziqib borsa, yangi pedagogik texnologiyalar taqdimotida ishtirok etsa, ma'lum mashg'ulot chog'ida o'rganilgan mavzuni uyda bolasi bilan mustahkamlab borsa,

ta'lim-tarbiya sifatini yuksaltirishda mas'uliyatni his qilib bevosita bu jarayonning samarali bo'lishiga hissa qo'shadi. Asosiy masalalardan biri ana shu hamkorlikni yanada takomillashtirish, fan va ilmiy tadqiqotlarda qo'lga kiritilgan natijalarni amaliyotga joriy etishdir. Bola shaxsi rivojlanishida "Men" tushunchasining paydo bo'lishi, uning o'zi va o'z fazilatlarini to'g'risidagi tasavvurlari dastlab oila tarbiyasidan boshlanadi, maktabgacha talim tashkilotida tarbiyachilar yordamida esa ushbu tasavvurlar yanada kengayib, komil shaxs fazilatlarini rivojlanib boradi. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsi ijtimoiylashuvi jarayonida uning o'zi to'g'risidagi tasavvurlari tizimining shakllanishida oila omilining roli shundaki, bunda asosiy shakllantiruvchi mexanizm oiladagi manaviy-ruhiy muhit, ota-ona va yaqinlarining o'zaro munosabatlaridan tashqari ota-onaning farzandga bo'lgan munosabatlari va bolani komil inson etib tarbiyalash to'g'risidagi bilimlari muhim o'rin tutadi. Demak, bolaning o'zini, o'z shaxsini, qaysi bir jins vakili ekanligini anglashi va hayotiy tasavvurlarining shakllanishida ota-onalik munosabatlarining uyg'unlashgan bo'lishi katta ahamiyatga ega. Normal rivojlanayotgan bolalar maktabgacha talim tashkilotlarida katta hayotiy tasavvurlarga ega bo'lib boradilar, bu yerdagi talim va tarbiyaning samaradorligi oila bilan hamkorlikka tayanishi barchaga ma'lum. Ko'plab xalqlarda qaysi yosh davrida bolalarga qanday muomala qilish haqida ma'lum tasavvurlar shakllangan. Ana shu tasavvurlarning hammasi bir narsani ta'kidlaydiki, bola shaxsi taraqqiyoti undagi turli sifatlarning shakllanishi uchun eng mas'uliyatli davr bu bolaning 3-7 yoshgacha bo'lgan davri, ya'ni ilmiy psixologik til bilan aytganda maktabgacha yosh davri hisoblanadi. "Qush uyasida ko'rganini qiladi" deganlaridek bola oilada nimani o'zlashtirsa, hayotda ham shu tajribani qo'llaydi, ya'ni shafqatsizlik qilsak shafqatsizlikni, qo'pollik qilsak qo'pollikni, befarqlik qilsak befarqlikni, loqaydlik qilsak loqaydlikni. Shu bilan birga, maktabgacha talim tashkilotlarida ota-onalar kengashlarini tashkil etishda muammolar mavjud bo'lib, ular asosan maktabgacha talim tashkilotlari ma'muriyati, tarbiyachi-pedagoglar har doim ham barcha tarbiyalanuvchilarning oilasi, undagi sharoitlar, ota-onaning bola barkamol bo'lib voyaga yetishiga qanchalik qiziqishi va manfaatdorligini yaxshi bilmasligidan iborat bo'lib, natijada bazan maktabgacha talim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bola psixologiyasida ayrim muammolar, kemptiklar keltirib chiqaradi. Maktabgacha talim tashkiloti ma'muriyati, tarbiyachi-pedagoglar mana shu muammo va kamchiliklarni bartaraf etishga befarq bo'lmasalar, ota-onalar bilan ishlashda hamkorlikni ta'minlasalar bolalar tarbiyasida barkamollikka erishish samaradorligi yanada oshadi. Bolalarning tarbiyachilar, tengdoshlari bilan bir qatorda, ota-onalari va oilaning boshqa a'zolari bilan ham hamkorlik qilishlari, ularni qo'llab quvvatlashlari va yordamlaridan bahramand bo'lishlari uzluksiz tarzda maktabda hamda ijtimoiy hayotga tayyorlash jarayonini jadallashtiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar orasida oila bilan hamkorlik muhitini vujudga keltirishda o'yinlar, suhbatlar, qisqa muddatli sayohatlar,

ertaklar o'qib berish va ularni qayta so'zlatish jarayonida amalga oshiriladi. Bu holat boshlang'ich ta'lim jarayonida uzluksiz tarzda davom ettirilib, frontal mashg'ulotlar va kichik guruhlarda ishlash, hamkorlikda o'quv topshiriqlarini bajartirish jarayoni sifatida tashkil etiladi. Tarbiyachilar ota-onalar ishtirokida alohida mashg'ulotlar tashkil etib, ular bilan hamkorlik vaziyatini vujudga keltirishlari ham mumkin. Mashg'ulotlar yakunida tarbiyachi bolalarni rag'batlantirishi muhim pedagogik ahamiyatga ega. Hamkorlikka asoslangan ta'lim-tarbiya jarayonining asosiy maqsadi-bolalarning mustaqil izlanish layoqatini rivojlantirish, MTTga jalb qilish jarayonida ko'nikmalarni egallashlarini ta'minlashdan iborat. Mazkur ishlarda bolalarning hamkorlikda ijod qilishlariga alohida urg'u berish lozim. Chunki, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda noma'lum narsalarni bilish, o'zlashtirishga nisbatan kuchli ishtiyoq mavjud. Tarbiyachi bolalar orasida hamkorlikni shakllantirishga qaratilgan maqsadga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshirishda ularga tanish bo'lgan o'yinlar va didaktik materiallarga tayanadi. Shu tariqa, bolalar orasida muayyan faoliyatga asoslangan o'zaro hamkorlik va ijobiy munosabatlar kengayadi. Shunga ko'ra, muayyan mashg'ulotlar davomida bolalarda ijodiy faoliyat tajribasi, hamkorlikda ishlash ko'nikmalari izchil tarzda shakllanadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni hamkorlikdagi faoliyatga tayyorlash quyidagi maqsadlarni nazarda tutadi: - Bolalarda hamkorlik asosida mustaqil mehnat qilish madaniyati elementlarini tarkib toptirish; - Bolalarning ijodiy layoqatlarini rivojlantirish; Bolalarda muayyan sohalarga nisbatan qiziqish va jamiyat a'zolari bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatishning muhimligi haqidagi tasavvurlarini shakllantirish; - Bolalarda tahliliy tafakkurni tarkib toptirish kabilar. Buning natijasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar o'zlarini qulay his qiladilar, o'zlariga tashqaridan nazar tashlashga odatlanadilar, o'z hatti harakatlarini tanqidiy baholay boshlaydilar, o'z kamchiliklarini aniqlashga erishadilar, bir-birlarining fikrlarini tinglay boshlaydilar, tengdoshlarining fikrlariga e'tibor qaratadilar, ularning fikrlari bilan hisoblashish ko'nikmasini egallaydilar. Hamkorlikda ishlash natijasida bolalar tengdoshlari oldida o'z fikrlarini himoya qilishga o'rganadilar. Yuqorida ta'kidlanganlarning barchasi tarbiyachi-tarbiyalanuvchilar-otonalarning hamkorliklari natijasida samarali tarzda amalga oshiriladi. Xulosa qilib aytganda, bolalarning maktab ta'limiga tayyorlashda ota-ona va maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachilari hamkorlikda faoliyat olib borsalar ta'lim-tarbiya samaradorligi yanada oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qodirova F.R, Toshpulatova SH.K, Kayumova N.M., Agzamova M.N. “Maktabgacha pedagogika” T.: Tafakkur, T- 2019. Darslik.
2. Sodiqova SH.A. Maktabgacha pedagogika. T.: Tafakkur bo`stoni. 2013 y. Darslik.
3. Kayumova.N.M. Maktabgacha pedagogika. T.: TDPU -2013 yil. Oquv qo`llanma.
4. Djurayeva.D.R. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari T.: 2015 y. UzPFITI. Uslubiy qo`llanma.
5. Ilk qadam” davlat o`quv dasturi, T- 2018 y.